Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
FILOLOGIYA

OLFAKTOR BIRLIKLARNING MULOQOTDA TUTGAN O'RNI

Akmaljon Tavakaljon o'g'li Qurbonov*
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi
✉ akmalqurbonov00u@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada olfaktor atamasining tilshunoslik nuqtayi nazaridan qanday ma'no ifodalashi, uning kommunikatsiya jarayonida muhim birlik sifatida qo'llanilishi, kimlar tomonidan atroflicha o'rganilganligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar

verbal, noverbal, olfaktor birlik, kommunikativ vosita.

DOI: 10.5281/zenodo.21743835

KIRISH

Bugungi kunda muloqot tizimida subyektlararo ekspressiv-pragmatik ta'sir ko'rsatishning bir qator innovatsion metodologik usullari mavjud bo'lib, ular muloqot kontekstini mukammal formatlashga xizmat qiladi. Mazkur ta'sir tizimlarining eng birlamchi va universal qatlami, shubhasiz, verbal ta'sir mexanizmidir. Bu jarayonda pragmatik kuch bevosita nutq tamoyillari orqali namoyon bo'ladi; ya'ni so'zlovchi subyekt tayyor leksik birliklar hamda struktur elementlarni ishga solib, individual so'zlashuv va ijtimoiy muloqot muhitini shakllantiradi. Biroq sof lisoniy oqim hech qachon mutloq yakkalikda yuzaga kelmaydi, balki u bevosita paralingvistik ta'sir elementlari bilan o'ralgan bo'ladi. Nutqni akustik va semantik jihatdan bezovchi, uning ekspressivligini goh izchil kuchaytirib, gohida pasaytirib turuvchi ushbu fonatsion omillar – ovoz tonining dinamikasi, prosodik parametrlar, to'xtalishlar, duduqlanish, yo'tal yoki turli nido va his-hayajon ifodalari muloqotning ta'sir quvvatini bir necha barobar oshiradi.

Lisoniy qobiqdan tashqarida kechadigan yanada kengroq qatlam esa noverbal ta'sir mexanizmlari bilan bog'liqdir. Mohiyatan "nutqsizlik" muhitini ifodalovchi ushbu ekstralingvistik vositalar tizimida muloqot ishtirokchilari so'zlarsiz, lekin parallel signallar – suhbatdoshlarning makondagi o'rni (proksemika), tana harakatlari, mimika va qarashlar traektoriyasi orqali interaktiv aloqani davom ettiradilar. Mana shu noverbal komponentlar ijtimoiy muloqot dinamikasini kuchaytirib, subyektlarning bir-birlarini kognitiv darajada chuqurroq tushunishlariga zamin hozirlaydi.

Nolisoniy ta'sir tizimining eng o'ziga xos va bugungi kunda alohida diqqat markazida turgan tarmog'i esa olfaktor tizim orqali ta'sir mexanizmidir. Insondagi olfaktor tizim tufayli individual va jamoaviy xotirada muayyan hidlar bilan bog'liq assotsiativ belgilar implitsit konseptlar sifatida muhrlanadi. Bunday sensor axborotlar ongli ravishda qabul qilinib, diskursda ifodalanganida ijtimoiy muloqotning yuqori darajada ta'sirchan va ekspressiv kechishini ta'minlaydi. O'z navbatida, konseptual ongda idrok etiladigan olfaktor xabarlar inson tafakkurida mutlaqo yangi konseptual assotsiatsiyalar, emotsional munosabatlar va yangi lisoniy fikrlarning yuzaga kelishida eng asosiy turtki bo'lib xizmat qiladi. (1,45-48)

Nolisoniy kommunikativ vositalarning ijtimoiy va lisoniy muloqot tizimidagi funksional roliga tilshunoslik ilmida qadimdan qiziqish mavjud bo'lgan. Chunonchi, bundan deyarli ikki ming yil muqaddam Rim ritorikasi asoschisi Sitseron o'zining notiqlik san'atiga oid traktatlarida so'z ustalari va siyosatchilarni

nutq so‘zlash jarayonida kinesik harakatlar hamda jestlardan o‘rinli, pragmatik jihatdan asoslangan holda foydalanish strategiyalarini maxsus o‘rgatgan.(2,112-115) Noverbal muloqot vositalari verbal kontekstni semantik jihatdan to‘ldiradi, uning ekspressivligini ta’minlaydi va ba’zan diskursda lisoniy belgining o‘rnini to‘liq kompensatsiya qiladi. Nolisoniy signallarning funksional qimmati shundaki, ular aksariyat hollarda subyektning biologik tabiati tufayli beixtiyor, ongsiz ravishda ijtimoiy maydonga sizib chiqadi va verbal vositalardan farqli o‘laroq, shaxsning ichki psixologik holatini, uning dunyoqarashidagi haqiqiy tuyg‘ularini aks ettiradi. Muhimi, ushbu tizimlar etnomadaniy xarakterga ega. Masalan, bolgar madaniyatida boshni vertikal va gorizontal harakatlantirish salbiy xarakterdagi “yo‘q” ma’noni ifodalasa, rus lingvomadaniyatida ushbu noverbal belgi mutlaqo teskari konseptual semantikani, ya’ni ijobiy ma’noni anglatadi. Shu bilan birga, yosh differensatsiyasiga ko‘ra ham noverbal muloqot vositalarining tabiati turlicha differensiallashadi. Xususan, ontogenezning dastlabki bosqichlarida bolalar kattalarga pragmatik ta’sir o‘tkazish, o‘zlarining sensor va biologik ehtiyojlarini, emotsional kayfiyatlarini o‘tkazishda refleksiv yig‘idan foydalanadilar.

“Hid” semali so‘zlar hidni idrok etish holatini ifodalash bilan birga shaxsning aqliy, hissiy va xulq-atvor xususiyatlarini baholash birligi sifatida ham ishlaydi. E.G.Basalaevaning “Baholash semantik mazmunida dinamik jarayonlar (hid sezgisi leksikasi asosida)” nomli maqolasida (3,19-29) qayd etilishicha, hid bilish sezgisiga doir til birliklarining semantik rivojlanish yo‘nalishi obrazli baholovchi ma’nolarni aktuallashtiradi, bunda sezgi semasi so‘nib, o‘zgarib, hissiy baho shakllanishiga asos bo‘lishi mumkin. Maqolada leksik-semantik o‘zgaruvchanlik tabiati leksemaning biror obyekt bilan bog‘liqligiga asoslanishi ko‘rsatilgan.

Psixolog olim S.L.Rubinshteyn hid bilish sezgisining inson ruhiyatiga, hayotiy faoliyatiga ta’sirini o‘rganadi.(4,159-160) Olimning fikriga ko‘ra, insonning hid bilish sezgisi tashqi dunyoni tushunishda ko‘rish, eshitish va teginishdan ko‘ra ancha kam rol o‘ynaydi. Hid bilish hissi turli moddalarning molekulalari nafas olayotgan havo bilan birga burunga kirganda paydo bo‘ladi. Sezgilarning hech biri hid bilish kabi hissiy sezgirlik bilan bunchalik bog‘liq emas: deyarli har bir hid bilish hissi ko‘proq yoki kamroq darajada yoqimli yoki yoqimsiz degan aniq xarakterga ega; ko‘plari juda keskin ijobiy yoki salbiy hissiy reaksiyani keltirib chiqaradi. Ba’zi hidlar chidab bo‘lmas darajada, boshqalari esa mast qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi odamlar ularning ta’siriga, ayniqsa, sezgir va ko‘pchilikning bu borada sezgirligi shunchalik kattaki, bu butun bir sanoat – atir sanoatining paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Chaqaloqlar eng avvalo hid bilish orqali axborot qabul qilishi tajribalarda isbotlandi. Ular onalarini aynan hididan tanib oladilar. Shu tariqa, inson hissiyotlarining faol qo‘zg‘atuvchisi sifatida hid bilish sezgisi o‘zining assotsiativ leksemalar guruhiga, ya’ni “hid” konseptiga oid til birliklarini jamlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tilning umumiy kommunikativ vositalari tahlilida olfaktor birliklarning o‘rni shundaki, ular nafaqat tasvirlash vositasi, balki emotsional asosni yaratuvchi, metaforik o‘xshatishlarni ta’minlovchi va muloqotning pragmatik maqsadiga erishishda yashirin, ammo kuchli qo‘shimcha ta’sir ko‘rsatuvchi “maxsus qatlam”dir. Ularni tahlil qilish tilning hissiyot va kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog‘liqligini ochib beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. — Самарқанд: Сангзор, 2006. — Б. 45-48.
2. Цицерон Марк Туллий. Три трактата об ораторском искусстве / Под ред. Г.М. Бонгард-Левина. — М.: Наука, 1972. — С. 112-115.
3. Басалаева Е.Г. Динамические процессы в содержании оценочной семантики (на материале лексики обонятельного восприятия) // Терра Лингуистиса. Санкт-Петербургский политехнический университет Петра Великого 2025, Том 16, № 1. С. 19–29.
4. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. СПб.: Питер, 2000. – С.159-160